UO‘K 82.0:821.512.133

RIVOYATLARNING ASAR SYUJETIDAGI BADIIY FUNKSIYASI

Bazarov Sobirjon Bektashovich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
sbazarov670@gmail.com
ORCID: 0009-0009-3820-2365

Annotatsiya. *Maqolada badiiy asar syujeti, uning kompozitsion yaxlitligini ta’minlashdagi o‘ziga xos tamoyillar hamda rivoyatlarning badiiy funksiyalari haqidagi ilmiy qarashlar tahlil qilinadi. Syujet va fabula, qistirma rivoyat, ramkali kompozitsiya, «matn ichidagi matn» tushunchalari V.B. Shklovskiy, B.V. Tomashevskiy, Yu.M. Lotman, J. Jenett, D. Quronov qarashlari asosida yoritiladi. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Lison ut-tayr» dostonlari, Chingiz Aytmatovning «Oq kema», «Asrga tatigulik kun» romanlari va Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» romani misolida rivoyatlarning syujet hosil qiluvchi, kompozitsion, xarakterologik, qiyoslash, ramziy-falsafiy va konseptual funksiyalari ochib beriladi. Rivoyat ijodkor konsepsiyasini yuzaga chiqarishda asosiy badiiy vosita bo‘lib xizmat qilishi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *syujet, fabula, kompozitsiya, kompozitsion yaxlitlik, rivoyat, hikoyat, qistirma rivoyat, ramkali kompozitsiya, matn ichidagi matn, badiiy funksiya, muallif konsepsiyasi.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ ЛЕГЕНД В СЮЖЕТЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются сюжет художественного произведения, специфические принципы обеспечения его композиционной целостности, а также научные взгляды на художественные функции легенд. На основе взглядов В.Б. Шкловского, Б.В. Томашевского, Ю.М. Лотмана, Ж. Женетта, Д. Куронова освещаются понятия сюжета и фабулы, вставной легенды, рамочной композиции, «текста в тексте». На материале поэм Алишера Навои «Хайрат ул-аброр» и «Лисон ут-тайр», романов Чингиза Айтматова «Белый пароход» и «И дольше века длится день», романа Исажона Султана «Вечный скиталец» раскрываются сюжетообразующая, композиционная, характерологическая, сопоставительная, символико-философская и концептуальная функции легенд. Обосновывается, что легенда служит важнейшим художественным средством воплощения авторской концепции.*

Ключевые слова: *сюжет, фабула, композиция, композиционная целостность, легенда, притча, вставная легенда, рамочная композиция, текст в тексте, художественная функция, авторская концепция.*

THE ARTISTIC FUNCTION OF LEGENDS IN THE PLOT OF A LITERARY WORK

Abstract. *The article analyzes the plot of a literary work, the specific principles that ensure its compositional integrity, and scholarly views on the artistic functions of legends. The concepts of plot and fabula, the inserted legend, frame composition and the “text within a text” are examined on the basis of the views of V.B. Shklovsky, B.V. Tomashevsky, Yu.M. Lotman, G. Genette and D. Kuronov. Drawing on Alisher Navoi's poems “Hayrat ul-abror” and "Lison ut-tayr", Chingiz Aitmatov's novels “The White Ship” and “The Day Lasts More than a Hundred Years”, and Isajon Sulton's novel “The Eternal Wanderer”, the article reveals the plot-forming, compositional, characterological, comparative, symbolic-philosophical and conceptual functions of legends. It argues that the legend serves as a key artistic means of expressing the author's concept.*

Keywords: *plot, fabula, composition, compositional integrity, legend, parable, inserted legend, frame composition, text within a text, artistic function, author's concept.*

Kirish. Rivoyat – insoniyat badiiy tafakkurining eng qadimiy shakllaridan biri. U o‘tmish haqidagi xotirani, xalqning axloqiy-ma’naviy tajribasini va dunyoni anglash tarzini ixcham syujet shaklida avloddan avlodga yetkazib kelgan. Yozma adabiyot shakllanar ekan, rivoyatlar uning tarkibiga faol kirib, muallif asarining ajralmas qismiga aylandi. Sharq mumtoz adabiyotida hikoyatlar doston tarkibida fikrni dalillash va ibrat vositasi bo‘lgan bo‘lsa, XX asr romanida rivoyat asarning badiiy konsepsiyasini tashuvchi asosiy unsurga aylandi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy nasrda rivoyat, afsona, mif va hikoyatlardan foydalanish keng tus olgan. Ijodkorlar rivoyat orqali tarix va bugunni, milliy xotira va shaxs taqdirini, real voqelik va ramziy ma'noni bir butunlikka birlashtiradi. Shu sababli rivoyatning asar syujetidagi o'rni, uning kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashdagi vazifasi va muallif konsepsiyasini ochishdagi ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash adabiyotshunoslik uchun muhim vazifadir.

Tadqiqotning maqsadi – rivoyatlarning badiiy asar syujeti va kompozitsiyasidagi funksiyalarini aniqlash hamda ularning ijodkor konsepsiyasini yuzaga chiqarishdagi badiiy o'rnini asoslashdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

1) badiiy asar syujeti va uning kompozitsion yaxlitligini ta'minlash tamoyillarini yoritish;

2) rivoyatlarning badiiy funksiyalari haqidagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish;

3) rivoyatlarning syujetdagi funksiyalari tipologiyasini belgilash;

4) tanlangan asarlar misolida rivoyatlarning muallif konsepsiyasini ochishdagi o'rnini tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Syujet nazariyasi jahon adabiyotshunosligida ancha chuqur ishlangan. A.N. Veselovskiy syujetni motivlar majmui sifatida ta'riflab, uning tarixiy-genetik ildizlarini folklor va mifga bog'lagan [1]. Rus formal maktabi vakillari fabula va syujetni farqladi. B.V. Tomashevskiy fabulani voqealarning tabiiy-xronologik va sababiy izchilligi, syujetni esa shu voqealarning asarda muallif tomonidan tartibga solingan badiiy ketma-ketligi deb izohlagan [2]. V.B. Shklovskiy nasrdagi «hoshiyalash» (ramka) usulini maxsus o'rganib, bir hikoyaning boshqa hikoyalar uchun hoshiya vazifasini bajarishini syujet qurishning qadimiy tamoyili sifatida ko'rsatgan [3].

Rivoyatning asar tarkibidagi o'rnini anglashda Yu.M. Lotmanning «matn ichidagi matn» nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Olimning fikricha, asosiy matnga kiritilgan boshqa tabiatli matn ikki semiotik tizim o'rtasida muloqot yuzaga keltiradi va asar ma'nosini ko'p qatlamli qiladi [4; 5]. J. Jenett hikoya qilish darajalarini farqlab, asosiy hikoya ichidagi ikkinchi darajali hikoyaning asosiy syujetga nisbatan izohlovchi, tematik va bevosita harakatga ta'sir etuvchi vazifalarini ajratgan [6]. M.M. Baxtinning xronotop haqidagi qarashlari esa rivoyat va asosiy syujet o'rtasidagi makon-zamon munosabatlarini tahlil qilishga imkon beradi [7]. Ye.M. Meletinskiy mifologik syujetlarning yangi davr nasrida qayta ishlanishini XX asr adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri deb baholagan [8].

O'zbek adabiyotshunosligida syujet, kompozitsiya va uning unsurlari D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyevalarning "Adabiyotshunoslik lug'ati"da, D. Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslari" darsligida nazariy jihatdan izohlangan [9; 10]. Mumtoz adabiyotdagi hikoyatlarning doston tarkibidagi vazifalari navoiyshunoslik tadqiqotlarida o'rganilgan. Mustaqillik davri nasridagi shartlilik, ramziylik va rivoyat unsurlari U. Normatov, Q. Yo'ldoshev tadqiqotlarida tahlil qilingan [11; 12]. Biroq rivoyatlarning syujetdagi badiiy funksiyalarini tizimli tipologik tasniflash va ularning muallif konsepsiyasi bilan aloqasini yaxlit holda o'rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktural-semantik, narratologik va tarixiy-poetik metodlardan foydalanildi. Narratologik yondashuv hikoya qilish darajalari va rivoyatning asosiy syujetga nisbatan o'rnini aniqlashga, struktural-semantik tahlil rivoyat va asosiy syujet o'rtasidagi ma'noviy aloqalarni ochishga xizmat qildi. Qiyosiy-tipologik metod mumtoz doston va zamonaviy romandagi rivoyat funksiyalarini solishtirish imkonini berdi.

Tadqiqot materiali sifatida Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Lison ut-tayr" dostonlari, Chingiz Aytmatovning "Oq kema" va "Asrga tatigulik kun" romanlari, Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» romani tanlandi. Tanlov rivoyatning mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi funksiyalarini tarixiy tadrijda kuzatish imkonini berishiga asoslandi.

Tahlil va natijalar.

1. Badiiy asar syujeti va kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash tamoyillari

Syujet – badiiy asardagi voqealar tizimi bo'lib, u qahramonlar xarakterini ochish va muallif g'oyasini ifodalashga xizmat qiladi. An'anaviy syujet tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim kabi unsurlardan tashkil topadi. Ammo XX asr nasrida bu izchillik ko'pincha buziladi: voqealar retrospeksiya, xotira, tush, rivoyat orqali uzilib, turli zamon qatlamlari bir-biriga kesishadi. Bunday sharoitda asarning yaxlitligi voqealar zanjiri emas, balki chuqurroq kompozitsion tamoyillar orqali ta'minlanadi.

Kompozitsion yaxlitlikni ta'minlovchi asosiy tamoyillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) **ramkalash (hoshiyalash) tamoyili** – asosiy hikoya boshqa hikoyalar uchun hoshiya vazifasini bajaradi va ularni bir butunga birlashtiradi;

2) **parallelizm tamoyili** – ikki yoki undan ortiq syujet chizig'i bir-biriga mos kelib, o'zaro ma'no almashadi;

3) **zidlash (kontrast) tamoyili** – rivoyatdagi ideal olam va asosiy syujetdagi voqelik o‘rtasidagi ziddiyat muallif bahosini ifodalaydi;

4) **takror va leytmotiv tamoyili** – obraz, detal yoki motivning takrorlanishi turli epizodlarni ichki jihatdan bog‘laydi;

5) **ramziy umumlashtirish tamoyili** – alohida voqea ramz orqali umuminsoniy ma’no darajasiga ko‘tariladi;

6) **xronotopik bog‘lanish tamoyili** – o‘tmish va bugun, afsonaviy va real zamon bir makon yoki obraz atrofida tutashadi.

Rivoyat ana shu tamoyillarning aksariyatini amalga oshiruvchi universal vositadir. U asosiy syujetdan tashqarida turgandek tuyulsa-da, aslida uni ichki jihatdan birlashtiruvchi, ma’noviy markaz vazifasini bajaradi.

2. Rivoyat tushunchasi va uning badiiy funksiyalari haqidagi qarashlar

Adabiyotshunoslikda rivoyat deganda tarixiy shaxs, joy, voqea yoki hodisa bilan bog‘liq, xalq orasida og‘zaki tarqalgan, haqiqat va to‘qima aralash hikoya tushuniladi. Rivoyat afsonadan tarixiy asosga yaqinligi bilan, mifdan esa muqaddaslik va kosmogonik mazmunning sustligi bilan farqlanadi. Yozma asar tarkibiga kiritilgan rivoyat qistirma rivoyat deb ataladi. Mumtoz adabiyotimizda uning vazifasini ko‘pincha hikoyat bajargan.

Rivoyatning badiiy funksiyalari haqidagi qarashlarni uch yo‘nalishda umumlashtirish mumkin. **Birinchi yo‘nalish** (V.B. Shklovskiy, B.V. Tomashevskiy) rivoyatni syujet qurish usuli, hoshiyalash va sekinlatish vositasi sifatida baholaydi [2; 3]. **Ikkinchi yo‘nalish** (Yu.M. Lotman, J. Jenett) uni “matn ichidagi matn” yoki ikkinchi darajali hikoya sifatida talqin etib, asosiy matn bilan ma’noviy muloqotga e’tibor qaratadi [4; 6]. **Uchinchi yo‘nalish** (Ye.M. Meletinskiy) rivoyat va mifning arxetipik tabiatini, ularning yangi davr adabiyotida qayta ishlanishini o‘rganadi [8].

Ushbu qarashlar asosida rivoyatning asosiy syujetga munosabatiga ko‘ra quyidagi badiiy funksiyalarini ajratish mumkin: syujet hosil qiluvchi, kompozitsion (ramkalovchi va bog‘lovchi), xarakterologik, qiyoslash (parallel yoki kontrast), prognostik (voqealarni oldindan ishora qiluvchi), ramziy-falsafiy va konseptual funksiyalar. Amalda bir rivoyat bir vaqtning o‘zida bir necha funksiyani bajaradi.

3. Mumtoz adabiyotda hikoyatning badiiy funksiyasi

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida yigirma maqolatning har biri hikoyat bilan yakunlanadi. Maqolatda ilgari surilgan axloqiy-falsafiy fikr hikoyatda badiiy dalil va ibrat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda hikoyat asosan **dalillash va ibrat funksiyasi**ni bajaradi. Shu bilan birga, hikoyatlarning tizimli joylashuvi dostonga qat’iy kompozitsion tartib va yaxlitlik baxsh etadi.

“Lison ut-tayr” dostonida esa hikoyat funksiyasi yanada murakkablashadi. Qushlarning Semurg‘ni izlab safarga chiqishi asosiy hoshiya-syujetni tashkil etadi. Hudhudning qushlar savollariga javob tariqasida aytgan hikoyatlari ushbu hoshiyaga birlashadi. Ular ichida Shayx San’on haqidagi hikoyat alohida o‘rin tutadi: u ishq yo‘lidagi sinov, o‘zlikdan kechish va qayta uyg‘onishni ifodalaydi hamda butun dostonning tasavvufiy konsepsiyasini ixcham shaklda aks ettiradi. Shu tariqa hikoyat ramkali kompozitsiyada ham **kompozitsion**, ham **konseptual** funksiya bajaradi. Mumtoz an’anadagi bu tajriba keyinchalik zamonaviy nasrda rivoyatdan foydalanishning badiiy asoslaridan biri bo‘ldi.

4. Zamonaviy romanda rivoyatning syujet va konsepsiyadagi o‘rni

“Oq kema”: rivoyat va voqelik ziddiyati. Chingiz Aytmatovning “Oq kema” romanida Mo‘min chol bolaga aytib bergan Shoxdor ona bug‘u haqidagi rivoyat asarning ma’noviy markazini tashkil etadi. Rivoyatda ona bug‘u qirg‘inda yolg‘iz qolgan ikki bolani qutqarib, urug‘ni saqlab qolgan xaloskor timsoli sifatida gavdalanadi. Asosiy syujetda esa odamlar o‘sha rivoyatni unutib, marallarni ovlaydi. Bu ziddiyat **kontrast funksiyasi** orqali axloqiy tanazzulni yaqqol ko‘rsatadi. Rivoyat bolaning dunyoqarashini shakllantiradi (**xarakterologik funksiya**), fojiali yakunni oldindan tayyorlaydi (**prognostik funksiya**) va tabiat, xotira hamda ma’naviyatni asrash haqidagi muallif konsepsiyasini ochadi (**konseptual funksiya**).

“Asrga tatigulik kun”: manqurt rivoyati va tarixiy xotira. Yozuvchining «Asrga tatigulik kun» romanida manqurt rivoyati asar g‘oyasining o‘zagiga aylangan. Rivoyatda asirlikda xotirasidan mahrum etilgan yigit o‘zini izlab kelgan onasi Nayman onani tanimay, uni halok qiladi. Asosiy syujetda Yedigey do‘sti Kazangapni shu rivoyat bilan bog‘liq Ona Bayit qabristoniga dafn etish uchun yo‘lga chiqadi. Shu tariqa rivoyat va asosiy syujet **xronotopik** jihatdan tutashadi: afsonaviy o‘tmish va bugun bir makon atrofida birlashadi. Manqurt timsoli xotiradan, ildizdan ajralgan inson va jamiyat haqidagi **ramziy-falsafiy umumlashma**ga aylanib, asar konsepsiyasini belgilaydi. “Manqurt” so‘zining asardan chiqib, umumiste’moldagi tushunchaga aylangani rivoyatning badiiy kuchidan dalolat beradi.

“Boqiy darbadar”: rivoyat va abadiy izlash. Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» romanida rivoyat, tasavvufiy hikoyat va mifologik unsurlar asarning badiiy to‘qimasini tashkil etadi. Rivoyatlar qahramonning

zamon va makonlar bo‘ylab haqiqat izlashini bir-biriga bog‘lab, asarga ramkali kompozitsiya tusini beradi. Ular voqealar bayoni uchun fon bo‘libgina qolmay, inson ruhining abadiy izlanishi haqidagi muallif konsepsiyasini ochishga xizmat qiladi. Bu yerda rivoyat mumtoz adabiyotimizdagi ruhiy safar an’anasi va zamonaviy roman shakli o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

Jadval 1. Rivoyatlarning asar syujetidagi badiiy funksiyalari

Asar	Rivoyat yoki hikoyat	Asosiy funksiyalari	Muallif konsepsiyasidagi o‘rni
A. Navoiy, “Hayrat ul-abror”	maqolatlar so‘ngidagi hikoyatlar	dalillash, ibrat, kompozitsion	axloqiy-falsafiy fikrni badiiy dalillash
A. Navoiy, “Lison ut-tayr”	Hudhud hikoyatlari, Shayx San’on hikoyati	ramkalovchi, konseptual	tasavvufiy kamolot yo‘lini ochish
Ch. Aytmatov, “Oq kema”	Shoxdor ona bug‘u rivoyati	kontrast, xarakterologik, prognostik	tabiat va ma’naviyatni asrash g‘oyasi
Ch. Aytmatov, “Asrga tatigulik kun”	manqurt va Nayman ona rivoyati	xronotopik, ramziy-falsafiy	tarixiy xotirani saqlash g‘oyasi
I. Sulton, “Boqiy darbadar”	tasavvufiy rivoyat va hikoyatlar	ramkalovchi, konseptual	inson ruhining abadiy izlanishi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mumtoz adabiyotda hikoyat asosan dalillash va ibrat funksiyasini bajargan bo‘lsa, zamonaviy romanda rivoyat kontrast, xronotopik va ramziy-falsafiy funksiyalar orqali asarning ma’noviy markaziga aylanadi. Barcha holatlarda rivoyat muallif konsepsiyasini yuzaga chiqarishda yetakchi badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Badiiy asar syujetining kompozitsion yaxlitligi ramkalash, parallelizm, zidlash, takror va leytmotiv, ramziy umumlashtirish va xronotopik bog‘lanish tamoyillari orqali ta’minlanadi. Rivoyat bu tamoyillarning aksariyatini amalga oshiruvchi universal vositadir.

2. Rivoyatning badiiy funksiyalari haqidagi qarashlar syujet-kompozitsion (V.B. Shklovskiy, B.V. Tomashevskiy), semiotik-narratologik (Yu.M. Lotman, J. Jenett) va mifologik-arxetipik (Ye.M. Meletinskiy) yo‘nalishlarda shakllangan. Ularni uyg‘un qo‘llash rivoyat funksiyalarini to‘liq ochish imkonini beradi.

3. Rivoyat asar syujetida syujet hosil qiluvchi, kompozitsion, xarakterologik, qiyoslash, prognostik, ramziy-falsafiy va konseptual funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar ko‘pincha bir rivoyatda birgalikda namoyon bo‘ladi.

4. Mumtoz adabiyotdagi hikoyat asosan dalillash va ibrat vositasi bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy romanda rivoyat asarning ma’noviy markaziga aylanib, tarix va bugun, mif va voqelik o‘rtasida muloqot yuzaga keltiradi.

5. Rivoyat ijodkor konsepsiyasini yuzaga chiqarishda yetakchi badiiy vosita hisoblanadi: u muallif bahosini bevosita bayonsiz, ramz va qiyos orqali ifodalab, asarga ko‘p qatlamli ma’no baxsh etadi.

Kelgusida o‘zbek nasrida rivoyat va afsonalardan foydalanish tadrijini, ularning turkiy xalqlar adabiyotidagi o‘xshash hodisalar bilan qiyosiy tahlilini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 406 с.

2. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М.: Аспект Пресс, 1996. – 334 с.

3. Шкловский В.Б. О теории прозы. – М.: Федерация, 1929. – 266 с.

4. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 384 с.

5. Лотман Ю.М. Текст в тексте // Труды по знаковым системам. – Вып. 14. – Тарту, 1981.

6. Женетт Ж. Фигуры: В 2 т. – М.: Изд-во им. Сабашниковых, 1998.

7. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М.: Художественная литература, 1975. – 504 с.

8. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976. – 407 с.

9. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010.

10. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018.

11. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.

12. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

13. Norkulova Sh.T. Sayyid Qosimiyning «Majma’ ul-axbor» asari yaratilishi va kompozitsiyasi // New Renaissance. – 2024. – B. 1112–1116.

14. Norkulova Sh.T. «Mabdai nur»da ta’limiy-axloqiy masalalar talqini // New Renaissance. – 2024. – B. 182–186.

15. Norkulova Sh.T. «Boburnoma»da xalq og‘zaki ijodi namunalari talqini // New Renaissance. – 2024. – B. 813–818.